

Oydin Hojiyeva Lirikasida Vatan Talqini

Boliqulova Mehribon Abdumutal qizi¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oydin Hojiyevaning lirikasida Vatan talqini haqida so‘z yuritilgan. Shoira lirikasidagi badiiy tafakkur va yuksak ma’rifiy qarashlar ayrim she’rlari misolida tahlil qilingan. Shoira she’rlarida insoniy kechinmalar va qalb tovlanishlari asosiy obe’kt sifatida mohirlik bilan tasvirlangan. Shoiraning ma’naviy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg‘ular manzarasi, kechinma tarangligi haqida ma’lumotlar ifodalab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tasvir, Vatan mehri, xalq muhabbat, ijodiy jarayon tahlil va talqin.

Mustaqillik davri adabiyotining iste’dodli vakilasi Oydin Hojiyeva she’riyatida davrimizning o‘ziga xos go‘zalligi, zamondoshlarining qalbi va harakatining yorqin tasviri namoyon bo‘ladi. Zamonamiz ijodkorlarini taniy boshladi va ana shunday ijodiy ishlari bilan xalqimiz kitobxonlari qalbidan o‘z o‘rnini egallaydi.

Oydin Hojiyevaning ijodiy ishlari katta ahamiyatga ega. Shoira she’rlarining elaro mashhurligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Oydin Hojiyevaning olivjanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, insonga nisbatan samimi tuyg‘ular va hurmat, turlicha ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan ifodalangan ijodiy lirikasi, kitobxon qalbiga ta’sir o‘tkazadi, uni larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. “Qirq yildan ortiq ijodiy faoliyatida u jozibador, teran insoniy dard bilan sug‘orilgan she’rlarni ko‘plab yaratdi – ularni bir joyga jamlasa, bemalol to‘rt jildga joylashadigan kitob bo‘ladi”².

O‘zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva o‘zining nafis va mayin she’rlari, tug‘yonli dostonlari bilan bizga juda yaxshi tanish. Uning asarlarida jo‘shqin yoshlik his-tuyg‘ulari, ona yurtga muhabbat, go‘zal tabiat manzaralari, ayol qalbi kabi mavzular o‘z ifodasini topgan. Shoiraning lirik asarlari qahramonining ko‘plab jihatlari yuksak iste’dod sohibasi ekanligini anglatib turadi. Shoira so‘z orqali insonning ruhiy olamiga chuqurroq kiradi, uning ichki dunyosini badiiy tadqiq etadi. She’r faqat imkon borida yoki imkon boricha shunchaki shoirning xohishi bilan ro‘yobga chiqariladigan so‘zlar tizimi emas. She’r kutilmaganda qalbdan otilib chiqadigan faryod, iztirob, baxt va eng quvonchli lahzalarni kishi ruhiga ta’sir qiladigan ko‘rinishidir. Shoira so‘zni faqat ezgulikka xizmat qilishini xohlaydi, shuningdek, birgina so‘zni «mehr sadafida gavhar» kabi inson qalbiga kirib borib, uni ezgulikka oshno qiladi. Nazm qahramonlari biroz o‘ychan, ba’zan falsafiy, ba’zida esa jiddiy va ta’sirchan xarakterga ega. Rasul Hamzatov aytganidek, bolalar dardsiz-u she’r dard bilan tug‘ilsin³.

Istiqlolning ozod shabadalari

Yuzingizga tegib o‘tsa har sahar,

Ko‘zingizda hurlik ifodalari,

Deysiz: - Mutelikdan asra, alhazar!

Allohnning munavvar nuri bu tuproq,

Xudo yarlaqagan millat bo‘lamiz!

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillar fakulteti talabasi

² O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Oydin Hojiyeva. Birinchi jild. Toshkent, 2000.

³ Расулов Абдурафур. Истеъдод эътиқоди. – Тошкент, 2000.



Shoirlar so‘z aytsa orzuday porloq,

Biz-chi, biz tuproq gullataveramiz!

Mustaqillik yillarida yozilgan shoiraning ushbu satrlari xalqni birdamlikka chorlash, Xudo siylagan yerimiz, ozodligimizni ulug‘lash, uni qadriga yetish kabi ulug‘vor da’vatlarni o‘zida namoyon qilgan. Shoira xalqimiz o‘tmish hayotidagi mustaqil bo‘lishga intilishi, o‘z tili, o‘z yeri va qonunlariga egalik qilishga bo‘lgan istagini «Bir yoqa-yeng bo‘lib ulg‘aygan jonsizz» kabi satrlaridan ilg‘ab olish qiyin emas. «Fidoyi, xokisor O‘zbekistonsiz» – deya jarangdor satrlar bilan yo‘g‘rilgan jumlesi esa ko‘ngil naylarini chertib yuboradi.

Yashamoq!

Osmonga yetadi boshim

Bu oddiy, mehnatkash, so‘z qudratidan,

Ko‘zimdan tirqirab ketadi yoshim

Quyosh isli yorug‘ dunyo baxtidan.

Yuqoridagi satrlar kitobxon qalbida bevosita shukronalik hissini uyg‘otishini va hayotga bo‘lgan qiziqishlarini, vataniga nisbatan esa qalbida g‘urur-iftixor hamda cheksiz muhabbat yuragigacha kirib borganini ilg‘ash qiyin emas. Shoiraning lirik qahramoni allaqanday baxtli, bugunidan esa kelajakka bo‘lgan ishonch tuyg‘ulari ufurib turadi. Pokiza ishq nafasi bilan qorishib ketgan lirik qahramonning qalbi bahor quyoshi bilan butun borliqni yoritadi. Ma’lum ma’noda esa shoiraning o‘z chamanzori bor. Bu kabi she’riyat chamanzorida esa kuzgi xazonlarga o‘rin yo‘q.

Oydin Hojiyeva lirikasining eng muhim fazilati shundaki, uning she’rlarida samimiylilik, pok muhabbat va Vatanga bo‘lgan mehr singari mavzular yetakchilik qiladi. Mana bu satrdagi qalb navolariga e’tibor beramiz:

Sizni “gulim”, “gulim” qildim,

O‘zginamga zulm qildim.

Siz o‘tgan tosh ko‘chalarni

Men shahri Arzirum qildim.

Xavzi Qulzum qaylardadir,

Dashti sim-sim joylardadir.

Mening zorim yorsiz kechgan

Yillardadir, oylardadir.

Tulpor yolin o‘rgan shamol,

Behishtlarni ko‘rgan shamol,

Siz sollanib yurgan yo‘ldan

Marvaridlar tergan shamol.

O‘z yorini shunday mehrparvar satrlarda Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni qalbidagi ezgu insoniy fazilatlar mayjlanib ketadi. Ba’zan yashirinib yotgan, ba’zan bulut bag‘ridan balqib chiqqan oydek namoyon bo‘lgan bunday fazilatlar tasviri kitobxонни o‘ylantiradi va uning qalb torlarini chertib, jaranglatib yuboradi. She’riyatning inson qalbi bilan bog‘liqligi o‘z tasdig‘ini topadi. Shularga ko‘ra uni mehr shoiri, mehrli shoir deb atash o‘rinli bo‘ladi.

Oydin Hojiyevaning butun she’riyati shunday rangin tovlanishlari bilan ajralib turadi. Ular inson va Vatanga hayajonli mehr bilan yo‘g‘rilgan. So‘z sa’nati yaraliganidan buyon Vatan mavzusi she’riyatda



yetakchilik qilib keladi. Buni folklorimizning ajoyib namunasi «Alpomish» dostonida misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Vatan haqida ko‘plab shoir-u yozuvchilar mehr va muhabbat bilan yuragining tubtubidan jo‘shib yo‘g‘rilgan ko‘ngil asarlarini chegarasi yo‘q. Shoira lirikasidagi hech kimnikiga o‘xshamaydigan tasvir, samimi tuyg‘ulari bilan yozilgan dil izhorlar esa kitobxonni bevosita tafakkur qilishga chorlaydi.

Davr va tarixiy jarayondan uzilib qolmagan holatda Oydin Hojiyeva o‘z she’rlarida inson va tarix, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzularini yoritadi. Biz uning she’rlarida Buxoroning koloritli manzaralari, shu zamindagi ajdodlarning tasviri hamda ular yashagan jamiyat va hududlarini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Shoira o‘z tavakkur va xayolida birlashtirgan o‘tmish haqidagi uyg‘unlashuvini ushbu to‘rtlikda aytib o‘tadi:

Falak ayvonida burji farahman,
Gohi baxtdan, gohi darddan karaxtman.
Qayu oftob o‘tibdi boshingizdan,
Mehr bog‘inda-ku ko‘m-ko‘k daraxtman.

Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni hayot qiyinchiliklarini fojia deb yoki baxtni tayyor holda qabul qiladigan shaxs emas. Bir qaraganda baxt va baxtsizlik hammaga ravshan tushunchadek, biroq ularning har ikkalasi inson qalbi orqali ro‘yobga chiqadi. Xuddi shuningdek, ezgulik va yovuzlik ham bir qalb tubida paydo bo‘ladi va u orqali ikkisiga ham birdeksiz xizmat qiladi.

Chinni piyolangiz kungrasida,
Bitilgan muhabbat baytiman aytинг.
Tanglayim ko‘tarib tong qo‘rasida,
Bir hovuch nur qo‘shgan ismimga xalqim.

Endi uying to‘ri o‘zniki bo‘lg‘ay.
Noning butun bo‘lg‘ay, o‘zlig‘ing bo‘lg‘ay!
Endi og‘zingdагin oldirma, xalqim,
Mustaqillik yorug‘ yuzliging bo‘lg‘ay!

Oydin Hojiyevaning yurtimiz mustaqillkka erishish arafasida yozilgan bir turkum she’rlari diqqatga sazovordir.

Millat, xalq tushunchalari shoira ijodida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Millat bu – tarbiyasi va tili bir – umumiyo‘n bo‘lgan odamlardan iborat madaniy-ma’naviy kategoriya. Kishi yon-atrofидagi istagancha odamlar bilan emas, balki o‘zi bilan bir ona tili va bir xil tarbiyaga ega odamlar bilan yashashni istaydi. Zero, inson shaxsi uning taniga emas, ruhiga taalluqlidir. Bizning moddiy, jismoniy xususiyatlarimiz irqimiz bilan bog‘liq bo‘lsa, bizning ruhiy-ma’naviy sifatlarimiz biz tarbiyalangan jamiyatda shakllanadi. Xalqning merosiy ma’rifati va merosiy madaniyati zamon-zamonlar osha boshqa xalqlarning madaniyatlari va udumlari bilan boyib, oqibat uzlusiz taraqqiy qilib boruvchi milliylik vujudga keladi.⁴

Ona yurt, uning jamoli, baxti bugungi kuni va istiqboli haqli ravishda o‘zbek poeziyasining markaziy mavzularidan biridir. Mazkur mavzuni Oydin Hojiyeva ham chetlab o‘tgani yo‘q. Uning she’rlarini o‘qir ekanmiz she’riyatga, Vatan va millatga bo‘lgan samimiyyat muhabbat, iliq tuyg‘ular ko‘z oldimizda gavdlanadi:

⁴ Abdug‘afur Rasulov. O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati. 2016.- B. 161



Hazorispand bo‘lsam sahrolaringda,
Feruza tosh bo‘lsam daryolaringda,
Hayit oyi bo‘lsam samolaringda,
Mehr-u vafo ko‘rar dunyolaringda,
Seni yomon ko‘zdan asramoq uchun!

Faqat sen ko‘zimga boqib tur, Vatan,
Onamday yelkamdan qoqib tur, Vatan,
Qalbimda daryoday oqib tur, Vatan,
Boshimda xumoday balqib tur, Vatan,
Meni gumon so‘zdan asramoq uchun!
Seni yomon ko‘zdan asramoq uchun!

Shoira Vatanini g‘animlardan asrashga, uni begonalar nazaridan saqlashga harakat qilar ekan, uning bor kuch va qudrati she’rlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Oydin Hojiyeva mustaqillik yillarda she’r, qasida, dostonlar qatori, publisistik maqolalarida dolzarb muammolarni ko‘tarib chiqqan. «Ruhimizga yong‘in tushmasin» majmuasi shular jumlasidandir. Aytib o‘tish lozimki, hozirgi kunda ham publisistik ruh barq etib turgan she’rlarida, zamon talabiga kuyunchaklik bilan «labbay», deb javob beradigan satrlari o‘quvchi yodiga muhrulanib qoladi. Bunga sabab esa «Biz yarim asr zulmat, qizil imperiya iskanjasida yashadik. Tilimiz chiqqandan sochimiz oqarguncha, to‘tiquishdek sayrashni, bir xil gapni takrorlashni bildik. Bu esa bizni o‘zligimizdan ancha uzoqlashtirdi. Dinimiz, madaniyatimiz va urf-odatlarimiz tobtaldi. Ajdodlarimiz suv ichgan buloqlarning ko‘zini yopishdi. Ayollarimizning qo‘li kosov, sochi supurgi bo‘ldi. Go‘daklar turli kasalliklar bilan shifoxonalarda najot kutib chinqirardi. Shukrlar bo‘lsinkim, mustaqillik shabadalari tilimizni «yechib»yubordi» – deydi shoira.⁵

Millat – xalqning madaniy-ma’rifiy o‘ziga xosligidir. Milliylik millatning o‘ziga xosligidir. Millat ham, milliylik ham o‘z doirasida o‘zgarib, yangidan yangi sifat belgilari topib boradi. Millat, xalq, mafkura atamalari biz uchun aniq tushunchalar hisoblanadi. Bu tushunchalar mohiyatida shoiraning nafis va nozik tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan.

Quyosh chiqqan Chinni piyolangiz kungrasida,
Bitilgan muhabbat baytiman aytинг.
Tanglayim ko‘tarib tong qo‘rasida,
Bir hovuch nur qo‘shgan ismimga xalqim.

Quyosh chiqqan mahalda tashqariga chiqqan shoira ismiga bir hovuch nur qo‘shgan xalqiga alyor aytadi. Shunday xalqi, millati borligidan doimo tanglayini ko‘tarib yuradi, hamdlar aytadi. Xalqning shoiraga nisbatan munosabati va iliq tuyg‘ular sarchasmasidan bahramand bo‘lib, to‘lqinlanib yozilgan elga mehri aks ettirilgan. Shu bilan birga,

Yaxshingni oshirgan mehribon eling,
Yomoning yashirgan mehribon eling,
Shamolgaroning ham – soyabon eling...
Ko‘ksingga el kabi tumor qaydadur?

⁵ Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – B.307.



Vatanga muhabbat, ma’naviy poklik, til bilan dil rostligi, hayotning abadiy va unutilmas orzu armonlari, inson matonati, xalqning beqiyos go‘zal, olrijanob qalbini kuylash, odamlarga munis, mehribon dardkash bo‘lmoq istagi Hojiyeva ijodining bosh mavzusi hisoblanadi. Hojiyeva 1990-yillarda ham vatanparvarlik mavzusida turkum she’r va dostonlar yozdi. Bular «Dard», «Ozod so‘z yolqinlari», «Ziyorat» va boshqalar shular jumlasidandir. Yarim asrdirki, uning qo‘lidan qalam tushmaydi. Yozuvchilar uyushmasi tadbirlarida faol qatnashadi, yurt kezadi va istiqlol samaralrini ko‘zi bilan ko‘radi. Istiqlol esa ongimiz, ruhimizga chuqur kirib borayotgan umri uzoq tushuncha. Oydin Hojiyeva ham bora-bora istiqlolni yangilayotgan dunyoqarash samarasi sifatida tiniq rang, toza ohanglarda mukammal, go‘zal, mangu yashovchan qilib tasvirlashga urindi va uddasidan chiqdi desak, muboalag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Oydin Hojiyeva. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Rasulov A. Истеъдод эътикоди. – Тошкент, “Шарк”, 2000.
3. Rasulov A. O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati. – Toshkent, 2016.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. Hojiyeva O. Shom shu'lalari. Saylanma. She'rlar, dostonlar, qasidalar. – Toshkent, “Sharq”, 2010.
6. Naima, S. (2021). The effect of using songs on young learners and their motivation for learning English.
7. Шамурадова, Н. (2021). COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS (USAGE OF PARTS OF BODY). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-1).
8. Iskandarovich, A. S. (2021). Characteristics of english absolute constructions as compilers of semantic sentence structure. Евразийский научный журнал, (3), 24-26.

